

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOTIROV FARXOD O‘KTAMOVICH

**SPIRAL GALAKTIKALAR BALJINING FIZIK XUSUSIYATLARI VA
VUJUDGA KELISHINING NAZARIY JIHALARI**

01.03.02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-
математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical
sciences**

Botirov Farxod O‘ktamovich

Spiral galaktikalar baljining fizik xususiyatlari va vujudga kelishining
nazariy jihatlari..... 3

Ботиров Фарход Уктамович

Физические свойства балджей спиральных галактик и теоретические
аспекты их происхождения..... 19

Botirov Farkhod Uktamovich

Physical properties of spiral galaxies bulges and theoretical aspects of their
origin..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 39

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

BOTIROV FARXOD O‘KTAMOVICH

**SPIRAL GALAKTIKALAR BALJINING FIZIK XUSUSIYATLARI VA
VUJUDGA KELISHINING NAZARIY JIHLTLARI**

01.03.02 – Kosmos fizikasi va astrofizika

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirlar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM544 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasida (www.ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nuritdinov Salaxutdin Nasritdinovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Atamurotov Farrux Shuhratovich
fizika-matematika fanlari doktori

Tadjibaev Ikram Uralbaevich
fizika-matematika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

L.N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4 – uy, Tel.: (+99871) 227-12-24; faks (+99871)246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4 – uy, Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

K.T. Mirtadjiyeva

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari,
fizika-matematika fanlari doktori

F.T. Shamshiyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
fizika-matematika fanlari nomzodi

T.A. Axunov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar rais muovini,
fizika-matematika fanlari doktori

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda galaktikalar markazidagi o‘tamassiv qora o‘ralar, ular atrofidagi yadro sohasi hamda qavariqsimon baljlarni tadqiq qilish orqali ularning ona galaktikalari evolyutsiya bosqichlarini o‘rganish masalalariga yo‘naltirilgan tadqiqotlar dolzarbdir. Hozirgi kunda olib borilayotgan amaliy tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu tuzilmalarning fizik xossalari va evolyusiyasi galaktika turiga keskin bog‘liq ekani ko‘rsatilmoqda. Ma‘lumki baljlar disksimon galaktikalarning muhim ob‘ektlaridan biridir. Bu borada, jumladan disksimon galaktika hisoblanadigan spiral galaktikalar baljlarining (SGB) jamlanma katalogini yaratish, balj va ona galaktikalar asosiy xarakteristikalarini o‘rtasida fizik bog‘liqlik darajasini anglatuvchi empirik formulalar aniqlash va modellashtirish asosida baljlar vujudga kelish mehanizmini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda galaktikalarning kuzatuv ma‘lumotlar bazasini sezilarli darajada kengaytirish, ularning asosiy fizik xarakteristikalarini o‘rganish, o‘tamassiv qora o‘raning balj hamda galaktika fizik xususiyatlariga ta‘sirini aniqlash, baljlar turlarini aniqlashda Sersik modelini qo‘llash va zamonaviy teleskoplar yordami bilan baljlarning qator xillarini topishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan baljlarning shakliga va g‘alayon turiga ko‘ra minorasimon, disksimon, yeryong‘oq shaklidagi va psevdobaljlar kabi tiplarini sinflashtirish hamda ularning asosiy fizik tabiatini o‘rganish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar ustuvordir. Shu bilan birga, SGB asosiy turlarini nostatsionar model fonida vujudga kelishi uchun sodir bo‘ladigan gravitatsion beqarorliklari va markaziy o‘tamassiv qora o‘ralarning SGB hamda ularning ona galaktikalari fizik xususiyatlariga ta‘sirining tadqiqoti dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan zamonaviy astrofizikaning dolzarb yo‘nalishlariga e‘tibor oshib bormoqda. Shu jumladan, spiral galaktikalarda sodir bo‘ladigan fizik jarayonlar va ularda mavjud bo‘lgan baljlar tadqiqoti bo‘yicha kuzatuv aspektlarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga¹ bog‘liq bo‘lgan fundamental tadqiqotlar yo‘nalishi yurtimizda fanning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etishini bildiradi. Jumladan, kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish fundamental tadqiqotlarning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, galaktika baljining tadqiqoti uchun model tuzish va balj vujudga kelish nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonida, 2018 yil 12 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni

va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5209-sonli Farmoyishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 29 oktyabrda qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirish – II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorligi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda disksimon galaktikalar baljlari tuzilishining kuzatuvlarini olib borish yaxshi rivojlangan. Bugungi kunda Galatikamiz va boshqa disksimon galaktikalar balj tipini aniqlash, ularning alohida xususiyatlarini o'rganish, fotometrik tadqiqotlari va galaktikalarning bu qismini modellashtirish bilan dunyoning ko'pgina yetakchi olimlari shung'ullanib kelishmoqda. Misol tariqasida amerikalik J. Kormendy, D.Fisher, N. Drory, B.F. Madore, D. Zaritskiylarni, chililik D. Gadotti, O.A. Gonzallez, D. Minniti, M. Zoccalilarni, fransiyalik F. Bornaud, E. Athanassoula, F. Combes, P. Prugniellarni, avstraliyalik K.C. Freeman, M.Bureau, J. Mouldlarni, germaniyalik J. Hu, E. Emsellem, O. Gerhard, R. Saglialarni, xitoylik J. Shen, A. Schulze, ispaniyalik J. F. Barroso, P.S. Blazquez va boshqa olimlarni ko'rsatish mumkin. Ammo spiral galaktikalar baljlari uchun alohida kuzatuv ma'lumotlari yig'ilmagan va ularning statistik tahlili qilinmagan.

Ayrim mualliflar, masalan, J. Hu², J. Kormendy va R. Kennicutt³ o'z ishlarida galaktikalar turiga alohida e'tibor qaratmay, ular baljlarining qator fizik parametrlari orasidagi statistik bog'lanishlarni tadqiqot qilishgan. S.Tremaine va boshqalar⁴ esa yulduzlarning tezliklari dispersiyasi bilan balji markzidagi o'ta massiv qora tuynuk massasi kabi ayrim parametrlari orasidagi empirik bog'lanishni topishgan, lekin bunda ular ham galaktika turiga alohida e'tibor bermay, ularning barchasi uchun yagona statistikasini bajarishgan.

Shu bilan birga, O'zbekistonda galaktikalar shakllanish bosqichlarining nohizizliq nomuvozanat fazaviy modellarini tuzish masalalari S.N.Nuritdinov va K.T.Mirtadjevalar tomonidan amalga oshirilgan. S.N. Nuritdinov rossiyalik V.A.Antonov bilan hamkorlikda Eynshteyn statsionar modelining nohizizliq tebranish holi va ushbu dinamik model fonida barsimon g'alayonlar evolyutsiyasi muammolarini tadqiqot qilishgan. O'zbekiston Milliy universitetida olingan nazariy natijalar AQSh, Koreya va Hindiston olimlarining sonli tajribalari bilan tasdiqlandi. Ammo, alohida spiral galaktikalar balji uchun kuzatuv ma'lumotlarini yig'ish asosida ular tahlili olib borilmagan, shuningdek, ular vujudga kelishini keyinchalik

² J. Hu, "The black hole mass–bulge mass correlation: bulges versus pseudo-bulges" *MNRAS*, pp. 1-22, 2021.

³ J. Kormendy and R. Kennicutt, "Secular Evolution and the Formation of Pseudobulges in Disk Galaxies" *Astronomy & Astrophysics*, vol. 42, pp. 603-683, 2004.

⁴ S. Tremaine, K. Gebhardt, R. Bender, G. Bower, A. Dressler, S. M. Faber, A. V. Filippenko, R. Green, C. Grillmair, L.C. Ho, J. Kormendy, T.R. Lauer, J. Magorrian, J. Pinkney and D. Richstone, "The slope of the black hole mass versus velocity dispersion correlation" *Astrophysical Journal*, 574: 740-753, 2002.

tushuntirib berishda muhim ma'lumot hisoblangan spiral galaktikalar va ularning baljlarining fizik parametrlari orasidagi empirik bog'lanishlar aniqlanmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universitetining F2-13 – “O'zgravitatsiyalanuvchi sistemalar evolyutsiyasining nochiziqli nostatsionar bosqichlarida ularning gravitatsion beqarorliklari va mavjud rezonans holatlarni hisobga olgan holdagi fazaviy qorishishi” va FZ-2020092851 – “Turli geometriyaga ega bo'lgan o'zgravitatsiyalanuvchi sistemalar pulsatsiyasi fonida mayda masshtabli g'alayonlar beqarorliklari fizikasi” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi SGB fizik parametrlari orasidagi empirik formulalarni topish, sinflashtirish va spiral galaktikalar baljlarining vujudga kelish nazariyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

spiral galaktikalar baljlarining sinflashtirish mezonlarini ishlab chiqish uchun kuzatuv ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;

markaziy qora tuynuk massasi bilan SGB ning asosiy fizik xususiyatlari orasidagi empirik bog'liqliklarini izlash;

o'zgravitatsiyalanuvchi disk nostatsionar modelining vertikal tebranishlarining beqarorligi natijasida SGB hosil bo'lishining egrilanish nazariyasini ishlab chiqish;

anizotrop tezliklar diagrammasiga ega bo'lgan disksimon o'zgravitatsiyalanuvchi sistemalar uchun yangi nochiziqli nostatsionar modelini tuzish.

Tadqiqot ob'ekti SGB lar, ularning nazariy modellari va mos keladigan g'alayonlanish modalari, disksimon galaktikalarida bizgacha nazariy jihatdan o'rganilmagan shakllanish strukturalari.

Tadqiqotning predmeti o'zgravitatsiyalanuvchi disksimon sistemalarda SGB hosil bo'lish jarayonlari va mexanizmlari hamda nostatsionar modellar fonida gravitatsion beqarorlik xususiyatlarini aniqlashlardir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida statistik bog'lanishlarni topishda eng kichik kvadratlar usuli, shuningdek, differensial tenglamalar sistemalarini analitik va sonli yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1101 ta SGB dan iborat jamlanma katalog yaratilgan. Turli mualliflar tomonidan aniqlangan usullar hamda kuzatuv ma'lumotlari uchun solishtirma tahlili bajarilgan, baljlarni vujudga kelish nuqtai nazaridan sinflashtirish ishlab chiqilgan;

ilk bor SGB markazidagi qora o'ra massasi va asosiy fizik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikning empirik formulalari topilgan;

ilk bor o'zgravitatsiyalanuvchi disk nostatsionar modelining vertikal tebranishlarining beqarorligi natijasida spiral galaktikalarning baljlari hosil bo'lishining egrilanish nazariyasi ishlab chiqilgan;

Nostatsionar izotrop modelning aylanish parametri bo'yicha o'rtachalash usulini qo'llash orqali anizotrop tezliklar diagrammasiga ega bo'lgan disksimon o'zgravitatsiyalanuvchi sistemalar uchun analitik yechimini bera oladigan yangi pulsatsiyalanuvchi model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

adabiyotlar, xalqaro ma'lumotlar bazalari va boshqa mualliflarning internet saytlaridan foydalanib baljga ega spiral galaktikalarni tanlash orqali 1101 ta SGBdan iborat jamlanma katalogi tuzildi;

aloxida SGB ning fizik xususiyatlari, shuningdek, ularning markaziy qora tuynuk massasi o'rtasida bog'liqligining empirik formulalari amaliy maqsadlar uchun topilgan;

beqarorligi baljlarning shakllanishiga olib keladigan, g'alayonlanish modalari aniqlash bilan SGB ni sinflashtirish tavsiyasi qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlash uchun ishda kuzatuv ma'lumotlarini statistik tahlil qilishning zamonaviy va tasdiqlangan usullari, shuningdek, yuqori aniqlikdagi sonli hisoblash usullari, statistika va matematik tahlil qilish usullari qo'llanilgan. Bu SGB tadqiqot qilishda ta'sir qiluvchi barcha parametrlarni hisobga olish va ular shakllanishining qonuniyatlari haqida asosli xulosalar chiqarish imkonini berdi. Olingan natijalar bir qator respublika va xalqaro konferensiyalarda aprobatsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar SGB fizikasini va ular shakllanishining nochiziqli nazariyasini yaratishga yordam berishi va tuzilgan jamlanma katalogi hamda uning statistik tahlil natijalari sinflashtirish muammolarini yechish uchun asos bo'lishi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy tadqiqot natijalarini kuzatuvdan aniqlangan yangi SGB lariga qo'llash va ularning noma'lum fizik xususiyatlarini oson aniqlashda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya natijalari quyidagilarga joriy qilingan:

tuzilgan SGB katalogi F2-FA-F029 - "Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi" mavzusidagi loyiha doirasida, disk shaklidagi galaktikalar galosining xossalarini aniqlashda qo'llanilgan (O'zbekiston fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 2023 yil 24 noyabrdagi №02-09/266 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, galo va balj massalari o'rtasidagi empirik munosabatni aniqlashga erishilgan;

balj vujudga kelishining egrilanish nazariyasi va balj massasi bilan markaziy qora tuynuk massasi orasida topilgan empirik formula F2-FA-F029 - "Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi" mavzusidagi loyiha doirasida, spiral galaktikalar galolarining xossalarini o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 2023 yil 24 noyabrdagi №02-09/266 sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy natijalar qo'llanilishi galoga ega disk shaklidagi galaktikalar evolyutsiya bosqichlarini tadqiqot qilishga imkon bergan;

baljlarning vujudga kelish nazariyasini tadqiqot qilish uchun tuzilgan model F2-FA-F029 - "Gravitatsion linzalar, kompakt astrofizik obyektlar va nostatsionar disksimon tizimlar fizikasi" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan halqali galaktikalarning vujudga kelish muammosini tahlil qilishda qo'llanilgan (O'zbekiston fanlar Akademiyasi Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining 2023 yil 24

noyabrdagi №02-09/266 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tebranishning shunday modalari topildi-ki, ularning beqarorligi halqasimon galaktikalarning shakllanishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tkazilgan. Natijalar O'zbekiston Milliy universiteti "Astrofizik tadqiqotlari" ilmiy laboratoriyasi bilan hamkorlikdagi "Astronomiya va astrofizika" kafedrası seminarlarida, fizika fakulteti seminarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutidagi "Galaktikadan tashqi astronomiya" laboratoriyasining ilmiy seminarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari 27 ta ilmiy ishlarda, jumladan, 12 ta ilmiy maqolalarda shundan 3 tasi xorijiy Scopus bazasidagi jurnallarida va 9 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiya hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi ilovadan tashqari 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qism, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati hamda O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga muvofiqligi asoslangan, muammoni o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, shuningdek tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etilganligi va nashr qilingan ishlar, olingan natijalar aprobatsiyasi va dissertatsiyani tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishning "**Spiral galaktika baljlarining (SGB) kuzatuv xususiyatlari va ularning nazariy jihatlarini**" deb nomlangan birinchi bobi dissertatsiya mavzusi bo'yicha kuzatuv ma'lumotlar hamda nazariy tadqiqotlar bo'yicha adabiyotlar tahlil natijalari va SGB larning katta masshtabli tuzilishiga bag'ishlangan ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'lumki, Galaktikamizning va boshqa ko'plab spiral galaktikalarning markaziy qismida baljlar ko'pincha elliptik shaklga ega bo'lgan gumbazsimon shaklda kuzatiladi. Kuzatuvlarga ko'ra, SGB lar juda murakkab ichki tuzilishga ega. SGB vujudga kelishini tushuntiruvchi turli hil mexanizmlari orasidan ko'pincha galaktikalarning qo'shilish hodisasi ko'rsatiladi. Biroq, qo'shilish har doim ham spiral galaktikalarning shakllanishiga olib kelmaydi. Bizning fikrimizcha, gravitatsiya kuchining beqarorligi hodisasi nafaqat turli to'qnashuvsiz o'zgravitatsiyalanuvchi sistemalarning (TO'S) shakllanishi va evolyutsiyasida, balki TO'S tuzilishining

shakllanishida ham muhim rol o'ynashi mumkin. Astrofizikada bu hodisani o'rganishga doimo katta e'tibor berilishi bejizga emas.

“SGB zamonaviy kuzatish ma'lumotlarining statistik tahlili va ularni tasniflash masalalari” deb nomlanuvchi ikkinchi bobida SGB sinflashtirish muammolari tahlili mavjud. Ushbu bobda SGB ning zamonaviy kuzatuv ma'lumotlari natijalari bo'yicha adabiyotlar tahlili olib borilgan. SGB fizikasidagi mavjud muammolar, balj turlari bo'yicha tasniflash muammolari ko'rib chiqilgan va SGB bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari to'plangan. SGB bo'yicha kuzatuv ma'lumotlarini to'plash asosida 1101 ta ob'ektdan iborat jamlangan katalog tuzildi. Bizning katalogimiz boshqa ro'yxat va kataloglardan faqat spiral galaktikalar uchun balj parametrlarini taqdim etilishi bilan farq qiladi. Galaktika balji bilan bog'liq asosiy parametrlar LEDA va NED ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan maksimal qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan. Biz aniqladikki, galaktika baljlari ko'pincha Sc morfologik sinfiga mansub spiral galaktikalarda kuzatiladi. Umuman olganda, $S_a \rightarrow S_b \rightarrow S_c$ ($S_{Ba} \rightarrow S_{Bb} \rightarrow S_{Bc}$) morfologik tipdan o'tishda galaktika baljlari soni ortadi.

Bizning ishimizdan oldin ko'plab mualliflar baljlarni ikki turga bo'lishni taklif qilishgan: klassik (gumbaz shaklidagi) baljlar va psevdobaljlar. Biz ularni sinflashtirishni ishlab chiqdik va ularni 5 ta sinfga ajratish kerakligini ko'rsatdik: klassik baljlar (NGC6504); disk shaklidagi baljlar (NGC6782); yeryong'oqsimon baljlar (NGC7332); quti shaklidagi baljlar (NGC891) va psevdobaljlar. Oxirgi tur asosan X shaklidagi baljlarni va umuman tasniflab bo'lmaydigan holatlarni o'z ichiga oladi. Katalogimizda spiral galaktikalarning 32% klassik baljlar, 16% disksimon baljlar, 9% qutisimon, 3% yeryong'oqsimon va 40% psevdobaljlardir.

Keyinchalik, biz o'tamassiv qora o'ra (O'QO') massalarining ma'lum qiymatlari va spiral galaktikalar markaziy qismlarining asosiy fizik xususiyatlariga ega bo'lgan 65 ta galaktikadan iborat ro'yxatini tuzdik, xususan, unda balj massalari, galo massalari, balj yorqinligi, balj yulduzlarining tezlik dispersiyasi va boshqa kattaliklar mavjud. Biz galaktikaning asosiy markaziy qismlarining massalaridan markaziy qora o'ra massasi bilan empirik bog'liqliklarni topdik.

Ma'lumotlarning sinchkovlik bilan tahlili shuni ko'rsatdiki, 65 ta spiral galaktikadan 24 tasi uchun galo massalari ham mavjud bo'ldi. Qora o'ra va galo massalari o'rtasidagi aniqlangan korrelyatsiya koeffitsientining qiymati juda yaxshi bo'lib chiqdi: $cc = 0.64$. Ular orasida quyidagicha logarifmik munosabat topildi:

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = (6.446 \pm 1.13) + (0.588 \pm 0.15) \log(M_{\text{galo}}/M_{\odot}), \quad (1)$$

va koeffitsientlarni aniqlashdagi xatolik ham nisbatan kichik. Galaktik baljning markazidagi qora o'raning massasi ortishi bilan galaktika galosining massasi ham ortib boradi, ya'ni galaktika markazidagi qora o'raning massasi qanchalik katta bo'lsa, undagi galo massasi shunchalik katta bo'ladi, bu fizik jihatdan tushunarli.


Bundan tashqari, $N_{\text{III C}}$ sharsimon to'dalar soni va O'QO' massasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Bunda korrelyatsiya koeffitsienti $cc=0.86$, empirik formula esa quyidagi ko'rinishda:

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = 5.073 \pm 0.197 + (1.154 \pm 0.091) \cdot \log N_{\text{шс}}. \quad (2)$$

Agarda biz eng ko‘p uchraydigan faqat ellipsoidal shakldagi baljlar turini alohida qilib olsak, u holda korrelyatsiya biroz oshadi ($cc = 0.89$) va formula (2) quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = 5.4 \pm 0.257 + (1.046 \pm 0.107) \cdot \log N_{\text{шс}}, \quad (3)$$

shuningdek, M_{qD} va baljlarning massa $M_{\text{балдж}}$ qiymatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik ham qiziqish uyg‘otadi. Biz ilk bor spiral galaktikalarning balji ($M_{\text{балдж}}$) va O‘QO‘ (M_{qD}) massalari o‘rtasidagi empirik munosabatni izladik va juda yaxshi korrelyatsiya topildi (1-rasm).



1-rasm. chapda: barcha ob'ektlar uchun M_{qD} va $M_{\text{балдж}}$ bo‘lanish grafigi; o‘ngda: faqat klassik tipdagi baljlar uchun M_{qD} bilan $M_{\text{балдж}}$ bog‘lanish grafigi.

Agar biz faqat klassik ya’ni ellipsoidal baljlarni alohida ko‘radigan bo‘lsak, u holda korrelyatsiya koeffitsienti $cc = 0.77$ ga teng. Natijada quyidagicha empirik munosabat olindi:

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = -5.11 \pm 2.07 + (1.24 \pm 0.19) \cdot \log(M_{\text{Балдж}}/M_{\odot}). \quad (4)$$

Spiral galaktikalarning baljlarini aniqlash ba’zan juda qiyin, ayniqsa ularni sinflashtirish. Shuning uchun, barcha turdagi baljlarni hisobga olgan holda, korrelyatsiya koeffitsienti tabiiy ravishda kamayadi va $cc = 0.58$ qiymatiga yetadi. Ifoda esa umumiy holatda shunday

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = -1.99 \pm 0.18 + (0.91 \pm 0.17) \cdot \log(M_{\text{Балдж}}/M_{\odot}). \quad (5)$$

Bundan har bir balj tipi uchun alohida zarur bo‘lgan munosabatni aniqlash kerakligini ifodalaydi.

Shuningdek, biz M_{qD} va $L_{\text{балдж}}$ balj yorqinligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni

aniqladik. Empirik munosabatni topish uchun umumiy shakldagi logarifmik munosabatni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = \alpha + \beta * \log(L_{\text{балдж}}/L_{\odot}) . \quad (6)$$

Ikkita holat uchun koeffitsientlarning qiymatlari esa quyidagicha:

– barcha turdagi baljlar uchun: $cc = 0.72$,

$$\alpha = -5.09 \pm 1.69; \quad \beta = 1.22 \pm 0.16, \quad (7)$$

– klassik baljlar uchun: $cc = 0.83$,

$$\alpha = 0.95 \pm 0.85; \quad \beta = 0.64 \pm 0.08. \quad (8)$$

Ko‘rinib turibdiki, erkin hadning qiymatida farq mavjud va barcha turdagi baljlarni birgalikda ko‘rib chiqishda α qiymatini aniqlashda xatolik juda katta, bu har bir balj tipini alohida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Nihoyat, biz M_{qD} ning balj yulduzlarining tezliklar $\sigma_{\text{балдж}}$ dispersiyasiga bog‘liqligi natijalarini taqdim etamiz:

– barcha turdagi baljlar uchun ($cc=0.652$)

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = 5.55 \pm 0.318 + (0.014 \pm 0.002) \cdot \log(\sigma/\text{km} \cdot \text{s}^{-1}), \quad (9)$$

– klassik baljlar uchun: ($cc=0.728$)

$$\log(M_{\text{qD}}/M_{\odot}) = 5.96 \pm 0.358 + (0.013 \pm 0.002) \cdot \log(\sigma/\text{km} \cdot \text{s}^{-1}). \quad (10)$$

Shunday qilib, biz ona galaktika markaziy qismlarining asosiy fizik xususiyatlari bilan undagi O‘QO‘ massasi orasida yaqin bog‘liqligini topdik. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘QO‘ ushbu asosiy xususiyatlarning qiymatlarini boshqaradi va olingan natijalarni taqqoslashdan bu birlamchi ekanligi aniqlandi, aksincha emas.

Dissertatsiyaning “**Radial pulsatsiyalanuvchi disk shaklidagi modellar va ularning asosiy xarakteristikalari**” nomli uchinchi bobida anizotrop tezlik diagrammasi bilan radial beqaror diskning yangi fazali modeli tuzilgan.

Anizotropik tezliklar diagrammasi bilan nostatsionar disk modeli quyidagi ko‘rinishda tuzilgan:

$$\Psi_A = \frac{3\sigma_0}{2\pi} \left[\left(\left(\frac{r}{\Pi} + v_{\perp} \Pi \right)^2 + \Pi^2 (v_r - v_a)^2 \right)^{-1/2} - \left(\left(\frac{r}{\Pi} - v_{\perp} \Pi \right)^2 + \Pi^2 (v_r - v_a)^2 \right)^{-1/2} - \frac{2}{3} \right] \chi(D). \quad (11)$$

Ushbu model o‘z tekisligida $R = \Pi(t) R_0$ qonuniga muvofiq pulsatsiyalanadi, $\Pi(t)$ funktsiyasi

$$\Pi(t) = \frac{(1 + \lambda \cos \psi)}{1 - \lambda^2}, \quad t = \frac{\psi + \lambda \sin \psi}{(1 - \lambda^2)^{3/2}}.$$

Bu (11) anizotrop pulsatsiyalanuvchi modelni qurishning birinchi bosqichi bo‘lib, ikkinchi bosqich - superpozitsiya orqali quyidagicha kompozit modelni hosil qilishdan iborat:

$$\Psi_{\text{cocma6}} = (1-\mu) \left[\frac{\sigma_0}{2\pi\Pi\sqrt{1-\Omega^2}} \left[\frac{1-\Omega^2}{\Pi^2} \left(1 - \frac{r^2}{\Pi^2} \right) - (v_r - v_a)^2 - (v_\perp - v_b)^2 \right]^{\frac{1}{2}} \cdot \chi(R-r) \right] +$$

$$+ \mu \left[\frac{3\sigma_0}{2\pi} \left[\left(\left(\frac{r}{\Pi} + v_\perp\Pi \right)^2 + \Pi^2(v_r - v_a)^2 \right)^{-1/2} - \left(\left(\frac{r}{\Pi} - v_\perp\Pi \right)^2 + \Pi^2(v_r - v_a)^2 \right)^{-1/2} - \frac{2}{3} \right] \chi(D) \right] , \quad (12)$$

bu yerda μ - superpozitsiya parametri bo‘lib uning qiymati $[0;1]$ oralig‘ida o‘zgaradi. Shuningdek, agarda $\mu=0$ bo‘lsa sof izotrop, agarda $\mu=1$ bo‘lsa anizotropik holat, ya’ni superpozitsiya printsiptan foydalanish bu ikki holat o‘rtasidagi barcha modellarni qamrab olish imkonini beradi.

Keyingi bosqichda ushbu anizotrop modelning fizik xususiyatlari topildi. Masalan, pulsatsiyalanuvchi diskning kinetik energiyasining tarkibiy qismlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$T_r^{\text{reg}} = \frac{MR_0^2\lambda^2\sin^2\psi}{5\Pi^2(1-\lambda^2)}, \quad T_\perp^{\text{reg}} = \frac{3MR_0^2}{20\Pi^2}, \quad (13)$$

radial va vertikal yo‘nalishlarda tezlik dispersiyasi esa:

$$\sigma_R^2 = \frac{1}{\sigma} \iint (v_r - \bar{v}_r)^2 \psi_a d\bar{v} = \frac{1}{12\Pi^2} \left(R_0^2 - \frac{r^2}{\Pi^2} \right), \quad (14)$$

$$\sigma_\perp^2 = \frac{1}{\sigma} \iint (v_\perp - \bar{v}_\perp)^2 \psi_a d\bar{v} = \frac{R^2}{12\Pi^4}. \quad (15)$$

Topilgan fizik parametrlar nostatsionar diskning nohiziqli modelini to‘liq tavsiflaydi.

Dissertatsiyaning “**Disk shaklidagi galaktikalarning nohiziqli nostatsionar modellari fonida SGB larning shakllanishi**” nomli to‘rtinchi bobida baljlarning kelib chiqishining nohiziqli nazariyasi masalalari ko‘rib chiqilgan. Turli mualliflarning nashr etilgan kuzatuv ma’lumotlarining jamlangan katalogiga asoslanib, SGB turini tanlash va mos modalarni qidirish amalga oshirildi. Galaktikalarda turli xil balj turlarining vujudga kelish muammolari nohiziqli nostatsionar modellar fonida, unga mos keladigan beqarorlik modalarining o‘zgravitatsiyalanuvchi beqarorligini tahlil qilish orqali o‘rganiladi..


Diskning vertikal tebranishlarining beqarorligi natijasida baljning aniq ko‘rinishdagi shaklini olish uchun biz yupqa diskning kichik egilish tebranishlari nazariyasidan foydalandik.

Ilk bor, biz tamonimizdan klassik baljlarning kelib chiqish nazariyasi o‘rganildi. O‘zgravitatsiyalanuvchi diskning nohiziqli pulsatsiyalanuvchi fazali modeli qurilgan va uning fonida, beqarorligi klassik balj shakllanishiga olib keladigan egrilanish beqarorligining xatti-harakati o‘rganilgan. Buning uchun biz tebranish modalari (0,3) ni ko‘rib chiqdik, ya’ni $m=0$ azimutal to‘lqin soni, bu diskning aylanish o‘qiga nisbatan beqarorlik simmetriyasini bildiradi va asosiy

to'liqin soni $N=3$, bu gumbaz shakli bilan bog'liq. Bu holda (12) model uchun biz nostatsionar dispersiya tenglamasini (NDT) quyidagicha olindi:

$$(1 + \lambda \cos \psi) \frac{d^2 B}{d\psi^2} + \lambda \sin \psi \frac{dB}{d\psi} + \left[\frac{5}{2} - \frac{10}{3} \frac{(1-\mu)(1-\Omega^2)(1-\lambda^2)}{(1+\lambda \cos \psi)} - \frac{5\mu(1-\lambda^2)}{6(1+\lambda \cos \psi)} \right] B(\psi) = 0. \quad (16)$$

Ko'rinib turibdiki, NDT (16) uchta parametrغا bog'liq: λ , μ va Ω . Shubhasiz, bu erda uni faqat analitik o'rganish mumkin emas va shuning uchun biz fizik parametrlarning aniq qiymatlari uchun sonli integratsiyani (16) amalga oshiramiz. Berilgan μ qiymatlari uchun aylanish parametri Ω ga $\lambda=1-(2T/|U|)_0$ ning kritik diagrammasini qurish uchun parametrik rezonans barqarorligining ma'lum usulini qo'llaymiz. Biz superpozitsiya parametri 0; 0.25; 0.5 va 0.75 bo'lgan holatlarni ko'rib chiqdik. Hisoblash natijalari 1-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. μ ning turli qiymatlarida $N=3$, $m=0$ tebranish modasi uchun virial parametrning disk aylanish parametriga bog'liqligi. Qoraga bo'yalgan sohalar beqaror bo'lgan sohalarini ekanligini ifodalaydi.

2-rasmdan ko'rinib turibdiki, $\mu=0$ da bizda faqat izotrop tezliklar diagrammasi nostatsionar bo'lgan disk mavjud va butun maydonning yarmidan ko'pi beqaror,

bundan tashqari, $(2T/|U|)_0 \rightarrow 0$ bilan sof radial harakatlar holatiga yaqinlashganda, beqarorlikning «barglari» soni kamayadi. A $(2T/|U|)_0 \rightarrow 1$ bilan «barglar» maydoni asta-sekin o'sib boradi. Odatda μ ning qiymati oshishi bilan beqarorlik hududi kamayadi, ya'ni anizotrop qismning kompozit modelga kiritilishi kompozit modelning beqarorlik darajasi pasayishiga olib keladi (12).

Nostatsionar kompozit model uchun (12) ga muvofiq beqarorlikning xatti-harakati (0;5) quyidagi NDT yordamida tavsiflanadi:

$$(1 + \lambda \cos \psi) \frac{d^2 B}{d\psi^2} + \lambda \sin \psi \cdot \frac{dB}{d\psi} + \left\{ \frac{161}{32} - \frac{7\mu(1-\lambda^2)}{3(1+\lambda \cos \psi)} - \frac{28(1-\mu)(1-\lambda^2)(1-\Omega^2)}{3(1+\lambda \cos \psi)} \right\} B(\psi) = 0, \quad (17)$$

va (0;7) uchun NDT quyidagi ko'rinishga ega:

$$(1 + \lambda \cos \psi) \frac{d^2 B}{d\psi^2} + \lambda \sin \psi \cdot \frac{dB}{d\psi} + \left\{ \frac{969}{128} - \frac{9\mu(1-\lambda^2)}{2(1+\lambda \cos \psi)} - \frac{18(1-\mu)(1-\lambda^2)(1-\Omega^2)}{(1+\lambda \cos \psi)} \right\} B(\psi) = 0. \quad (18)$$

Ushbu NDT lar sonli yechish bilan hal qilindi va ko'rsatilgan beqarorliklarning uchta erkin parametrlarning qiymatlariga qarab ortib borishi aniqlandi.

m ning qiymati oshgani sayin, kompozit noturg'un disk modeli barqarorroq bo'ldi. Bundan tashqari, «barglari» soni ham kamayadi ekan.

Yana disk shaklidagi tebranish modalari ham ko'rib chiqilgan. Buning uchun modalar $m=0; N=15$ va $m=0; N=17$. Kompozit model (12) uchun disk shaklidagi tebranish modalarining ($m=0; N=15$) va ($m=0; N=17$) ga mos keladigan NDT lari topilgan.

Shubhasiz, olingan bu NDT larni analitik yechish imkoni mavjud emas va shuning uchun ularning sonli tadqiqotini davriy yechimlarning barqarorligi usuli yordamida bajardik.

Bundan tashqari, bu bobda psevdobaljnning vujudga kelishi muammolari ham tahlil qilingan. Ko'pgina mualliflar yeryong'oq, X shaklidagi va disk shaklidagi psevdobaljlar ekanligiga ishonishadi. Shuning uchun biz ikki xil X shaklidagi va yeryong'oqsimon baljlar uchun beqarorlik modalarini o'rganib chiqdik, ya'ni quyidagi modalar: $m=1, N=2$ va $m=2, N=5$.

Kompozit model (12) uchun moda ($m=1; N=2$) ning NDT si bizni quyidagi tenglamaga olib keladi:


$$(1 + \lambda \cos \psi) \frac{d^2 B}{d\psi^2} + \left(\lambda \sin \psi + 2i\Omega \sqrt{1-\lambda^2} (1-\mu) \right) \frac{dB}{d\psi} + \left\{ 1 - \frac{\mu(1-\lambda^2)}{1+\lambda \cos \psi} + \frac{(1-\mu)(1-\lambda^2)}{1+\lambda \cos \psi} \left[\frac{2i\Omega \lambda \sin \psi}{\sqrt{1-\lambda^2}} - 1 \right] \right\} B(\psi) = 0 \quad (19)$$

(12) model uchun tebranish modas ($m=2; N=5$) ining NDT quyidagi ko'rinishga ega:

$$(1 + \lambda \cos \psi) \frac{d^2 B}{d\psi^2} + \left(\lambda \sin \psi + 4i\Omega\sqrt{1-\lambda^2}(1-\mu) \right) \frac{dB}{d\psi} + \left\{ \frac{73}{16} - \frac{5\mu(1-\lambda^2)}{1+\lambda \cos \psi} + \frac{(1-\mu)(1-\lambda^2)}{1+\lambda \cos \psi} \left[\frac{4i\Omega\lambda \sin \Psi}{\sqrt{1-\lambda^2}} + 4\Omega^2 - 8 \right] \right\} B(\psi) = 0 \quad (20)$$

Barcha NDT lar ularning beqarorligi va kritik holatlarining o‘shishini aniqlash uchun sonli tarzda hal qilindi.

Keyinchalik, biz beqarorlik o‘shishini solishtirdik. Aylanish parametrining turli qiymatlari uchun beqarorlik o‘shishini hisoblash shuni ko‘rsatadiki, aylanish tezligi oshishi bilan beqarorlik o‘shishining qiymatlari asta-sekin kamayadi.



3-rasm. Ω ning turli qiymatlarida $\mu = 0.5$ model uchun gumbazsimon modaning beqarorlik inkrementi.

Radial tebranishlar bo‘lmaganda, ya’ni. $(2T/|U|)_0 = 1$ bo‘lsa, model $\Omega < 0.3536$ da butunlay beqaror. Shundan so‘ng, beqarorlik o‘shishi asta-sekin kamayadi (3-rasm) va barqarorlik kanali mavjudligi sababli beqarorlikning mos keladigan maydoni torayadi. Agar biz barqarorlik kanallaridan o‘tsak, har safar o‘zimizni aperidik beqarorlik zonasida topamiz. Shuningdek, hisob-kitoblar beqarorlik $(2T/|U|)_0 = 0.389$ dan boshlanishini ko‘rsatadi. Bunday holda, aylanish parametri $\Omega < 0.922$ qiymatiga qadar beqarorlashadi va keyin u barqarorlashtiruvchi rol o‘ynaydi. Bundan shuni aytishimiz mumkinki, tizimning evolyutsiyasi nostatsionarlik va aylanish darajasiga kuchli bog‘liqdir. Aylanish bo‘lmasa, biz barqarorlikning tor mintaqasini topdik (0,127; 0,084). Bu interval ortib borayotgan aylanish parametri bilan tezda torayib boradi va $\Omega > 0.04$ qiymatida yo‘qoladi. Barqarorlik hududi tebranish rezonans beqarorligi hududini radial harakatlarning beqarorligi zonasidan ajratib turadi. Ushbu beqarorliklar aylanish parametrining kichik qiymatlarida birlashadi. Beqarorlik

o'sishining aylanish parametriga bog'liqligidan kelib chiqadiki, virial parametrning qiymati oshishi bilan mos keladigan o'sish ham ortadi.

Ikki holat uchun ellipsoidal va gumbazsimon modalarning beqarorlik o'sishini Ω bo'yicha taqqoslash shuni ko'rsatadiki, aylanish parametrning 0 dan 0.5 gacha bo'lgan qiymatlari uchun gumbazsimon moda asosiy va undan keyin ellipsoidal moda asosiyga aylanadi. Aylanish darajasi oshgani sayin, gumbaz shaklidagi modaning beqarorligi asta-sekin kamayadi va ellipsoidal beqarorlik o'sishi ortadi.

Ilovada SGB galaktikalarining jamlanma katalogi hamda O'QO' massalariga ega bo'lgan spiral galaktikalar ro'yxati keltirilgan.

XULOSALAR

“Spiral galaktikalar baljining fizik xususiyatlari va vujudga kelishining nazariy jihatlarini” mavzusidagi dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi.

1. Adabiyotlar, xalqaro ma'lumotlar bazalari va boshqa mualliflarning Internet saytlaridan baljga ega spiral galaktikalarni tanlab, 1101 ta SGB ning jamlangan katalogi tuzildi. E'tibor berib, biz tuzgan baljlar katalogida spiral galaktikalar va ularning baljlar xususiyatlarining ma'lum qiymatlari mavjud bo'lib, ular asosan LEDA va NED ma'lumotlar bazasidan olingan.

2. Ma'lumotlarning statistik tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, galaktika baljlari boshqlariga nisbatan Sc morfologik sinfiga mansub spiral galaktikalarda ko'proq kuzatiladi. Umuman olganda, xarakteristikalar ma'lum qiymatlarga ega bo'lgan spiral galaktikalar soni morfologik tipi bo'yicha shunday ketma – ketlikda bo'larkan - Sa → Sb → Sc (SBa → SBb → SBc). Balj turlari sonining foizda quyidagi nisbati topildi: Klassik : Disksimon : Yeryong'oqsimon : Quti shaklidagi : Pseudo = 32% : 16% : 9% : 3% : 40% .

3. Ilk bor qora o'ra massasiga ega bo'lgan SGB ning maxsus ro'yxati tuzildi. Hozirda u O'QO' massalari ma'lum bo'lgan 65 ta ob'ektni o'z ichiga oladi. SGB larining aloxida fizik parametrlari, shuningdek, ularning markaziy qora tuynuk massasiga bog'liqligi o'rtasida empirik formulalar topildi.

4. Galaktika podsistemalarining asosiy fizik xususiyatlari va ona galaktika markaziy qora o'ra massasi o'rtasida yuqori darajali korrelyatsiya topildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Qora o'ra ushbu asosiy xususiyatlarning qiymatlarini boshqaradi va ko'rib chiqilgan podsistemalar bilan taqqoslaganda qora o'ra asosiy ekanligi aniqlandi.

5. Zamonaviy kuzatuv ma'lumotlarini hisobga olgan holda, SGB shakllanishining noxiziqli nostatsionar nazariyasi ishlab chiqildi. O'zgravitatsiyalanuvchi diskning yangi noxiziqli nomuvozanat anizotrop modeli qurildi va bu yangi nostatsionar disk modeli uchun umumiy ifodalar aniqlandi.

6. Anizotrop tezliklar diagrammasi bilan o'zgravitatsiyalanuvchi diskning noxiziqli nostatsionar kompozit modeli tuzilgan. Tuzilgan model uchun egrilanish beqarorlik modalarining NDTlari, N va m beqarorlik indekslarining ixtiyoriy qiymatlari uchun umumiy shakldagi ko'rinishi topildi.

7. Minora shaklidagi tebranish modalarining beqarorligi o'rganildi. Superpozitsiya parametrining berilgan qiymati uchun virial parametr qiymati va diskning aylanish parametri o'rtasidagi bog'liqlikning kritik diagrammalari tuzildi. Superpozitsiya parametrining qiymati ortib borishi bilan kompozit model tobora barqaror bo'lishligi ko'rsatildi. Diskning aylanishi, bizning modelimiz fonida gumbazsimon beqarorlik modasi uchun barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

БОТИРОВ ФАРХОД УКТАМОВИЧ

**ФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА БАЛДЖЕЙ СПИРАЛЬНЫХ ГАЛАКТИК И
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЯ**

01.03.02 – Физика космоса и астрофизика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2023.4.PhD/FM544.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ik-fizmat.nuu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Нуритдинов Салахутдин Насритдинович,**
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Атамуротов Фаррух Шухратович**
доктор физико-математических наук

Таджибаев Икрам Уралбоевич
доктор физико-математических наук

Ведущая организация: **Евразийский Национальный университет имени Л.
Н. Гумилёва**

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научном совете PhD.03/05.05.2023.FM.01.18 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4; Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024 г.
(Реестр протокола рассылки № ___ от “___” _____ 2024 г.)

К.Т. Миргаджиева

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук

Ф.Т. Шамшиев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученой степени, кандидат физико-математических наук

Т.А. Ахунов

Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученой степени, доктор физико-математических наук

ВВЕДЕНИЕ

(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой литературе сегодня актуальными являются исследования, сосредоточенные на вопросах изучения этапов эволюции родительских галактик путем исследования сверхмассивных черных дыр в их центре, околядерных областей вокруг них и выпуклых балджей. Согласно результатам современных исследований, физические свойства и эволюция этих структур сильно зависят от типа галактики. Известно, что балджи являются одним из важных структурных единиц дисковых галактик. В связи с этим, особое внимание уделяется разработке механизмов их формирования, нахождению эмпирических формул на основе создания сводного каталога балджей спиральных галактик (БСГ), в том числе, показывающих важность физической связи между основными характеристиками балджа и родительских галактик.

Отметим, что в мировой литературе значительно расширена база данных наблюдений галактик, проводится изучение основных их физических характеристик, влияния сверхмассивной черной дыры на балдж и физические свойства галактик, причем для определения типа балджей используется, например, модель Серсика и проводится исследование данных, полученных с помощью современных телескопов. В этом направлении, среди прочего, считаются приоритетными исследования, направленные на классификацию типов балджей по их внешней форме и модам возмущения, а именно разделение на классические, дискообразные, арахисоподобные и псевдобалджи с изучением соответствующей физической природы. В то же время изучение гравитационных неустойчивостей и влияния центральных сверхмассивных черных дыр на физические свойства БСГ и их родительских галактик, возникающих при формировании основных типов БСГ на фоне нестационарной модели, считается также актуальной задачей.

В нашей республике уделяется большое внимание современным направлениям астрофизики с научным и практическим применением соответствующих результатов. В частности, особое внимание уделяется изучению наблюдательных аспектов физических процессов, происходящих в спиральных галактиках, и изучению присутствующих в них балджей. Это означает, что направление фундаментальных исследований, связанное со стратегией⁵ развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы, имеет большое значение в развитии науки в нашей стране. В частности, основной задачей фундаментальных исследований считается проведение научных исследований на уровне международных стандартов в области космических исследований и развития технологий. Важным вопросом в реализации этих задач является создание модели для исследования балджа галактик и разработка теории образования балджа.

⁵ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 г. “О Стратегии развития нового Узбекистан на 2022–2026 годы”

Настоящая диссертация в определённой степени посвящена решению задач, обозначенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №-УП-6097 “Об утверждении концепции развития науки до 2030 года” от 29 октября 2020 года, №-РП-5209 “О мерах по развитию космических исследований и технологий в Республике Узбекистан” от 12 февраля 2018 года и законе №-ЗРУ-576 “О науке и научной деятельности”, подписанный Президентом Республики Узбекистан 29 октября 2019 года, а также других нормативно-правовых актах по данной деятельности.

